

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING TA'LIM MUASSASALARI BILAN  
HAMKORLIGI**

**Ziyodullayev Bunyod Bahrom o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 316-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorligi tushunchasi, tavsifi, ilmiy va nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy huquqiy asoslari, tartibga soluvchi huquqiy normalar. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishdagi bir qator muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etishga oid bir qator taklif va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в понятии, описании, научно-теоретических основах, особенностях, организационно-правовых основах, нормативно-правовых нормах взаимодействия профилактических инспекторов с образовательными учреждениями. Кроме того, был дан ряд проблем и недостатков в реализации деятельности инспекторов профилактики во взаимодействии с образовательными учреждениями, а также ряд предложений и рекомендаций по их устранению.

**Ilmiy maqolaning dolzarbligi:** " O'zbekiston Respublikasining qonunlari, kodekslari, Vazirlar maxkamasining qarorlari, Prezident qaror va farmonlarida ham ta'lim va tarbiya berish, huquqbuzarliklar profilaktikasida ta'lim organlarining vazifalari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonunida ham huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar sifatida belgilab qo'yilganligi ularning o'zaro hamkorlik doirasini belgilab qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora- tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 26 martdagi PF- 6196 son farmoni va ushbu farmonning ijrosini ta'minlash bo'yicha "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 02.04.2021 yildagi PQ-5050 qarori ustuvor vazifalardan biri bo'lib xisoblanadi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar'dagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoniga asosan, voyaga yetmaganlarni ta'lim va tarbiyasini shakllantirishda keng ko'lamli maqsadlar, shu jumladan, maktabgacha

ta'limdagi qamrov darajasini hozirga 67 foizdan 80 foizgacha yetkazish, voyaga yetmaganlarni ta'lim va tarbiyasida xususiy sektor mablag'lari orqali nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini rolini oshirish kabilar ilgari surildi.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Mazkur farmonga ko'ra, 2022 — 2026-yillarda 217 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturini amalga oshirish, yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun zarur jixozlar bilan ta'minlangan to'garaklar tashkil etish va ular faoliyatini yo'lga qo'yish yo'nalishlari beligilanishi, yurtimizda yoshlar va voyaga yetmaganlarining ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborning yorqin ifodasi bo'lib, davlat va jamiyat hayotida real ifoda aks etmoqda.

Umuman olganda ta'lim-tarbiya va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi tushunchalar mohiyatan bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadi. Ularning mavjudligi hamda davlat va jamiyat hayotida real ifoda topishi, to'g'rirog'i ta'minlanishiga juda ko'plab omillar o'zining bevosita va bilvosita ta'sirini o'tkazadi. Bundan tashqari, ushbu ikkala voqelik ham huquq, qonun va qat'iy belgilangan tartib-taomillar asosida qurilganligini inkor etib bo'lmaydi. SHu bilan birga ta'lim-tarbiya va huquqbuzarliklar profilaktikasida voyaga yetmaganlar, o'smirlar va katta yoshdagi fuqarolarning xulq-atvori bilan bog'liq masalalar fanning yurisprudensiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarining turli ixtisosliklarida alohida tadqiq etilishini, mazkur yo'nalishlarda chuqur asoslantirilgan ilmiy izlanishlar, fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Ayniqsa, bu borada yurisprudensiya ixtisosligining kriminologiya sohasida huquqbuzarlik hamda jinoyatlarning kelib chiqish sabablariga oid masalalar bo'yicha maxsus yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur deb bilamiz.

SHu sababli ta'lim va tarbiyada aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, qolaversa huquqiy ta'lim masalalariga yana bir bor jiddiy e'tibor qaratish masalasi bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim deb hisoblaymiz. Bunda eng avvalo, aholining huquqiy ta'limi va tarbiyasi, ayniqsa yoshlarga huquqiy ta'lim berish bilan bog'liq dolzarb masalaning huquqiy yechimini belgilash lozimligi yana bir bor yaqqol namoyon bo'ladi.

CHunki, ta'limni boshqarish organlari o'z vakolatlari doirasida voyaga yetmaganlarning huquqiy ongini oshirishga, ularni qonunga itoatkor etib tarbiyalashda, darslarga o'z vaqtida qatnashishini ta'minlashda, voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko'rsatishda, yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borishda, voyaga yetmaganlarning bandligini ta'minlashda muhim vakolatlarga egadirlar. Ta'kidlanganidek, ta'lim organlari va muassasalari ko'proq voyaga yetmaganlarning huquqiy ongiga ta'sir ko'rsatish, ularning huquqiy tarbiyasi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali ko'zlangan maqsadga erishishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy ta'lim va huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilashni taqozo etadi. YUqoridagi tahlillarimiz hamda bugungi kundagi huquqiy ta'lim va tarbiyaga bo'lgan munosabat ifodasi o'laroq, shuningdek taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarning ustuvor tajribasini inobatga olib, mamlakatimiz umumiy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Bu o'z navbatida voyaga



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

yetmagan ta'lim oluvchilar-ning huquqiy bilimlardan maxsus xabardorligini ta'minlash va bu orqali huquqiy dunyoqarashning nisbatan yanada rivojlanishiga turtki beradi.

1-4 sinflarda o'quvchilar «Inson va jamiyat» sohasi bo'yicha insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojiga, shu jumladan, davlat tushunchasini, davlatning ramziy belgilarini, ona-Vatan tuyg'usini anglash, huquq va huquqbuzarlik haqida tasavvurga ega bo'lish, oilada farzandning burchini bilish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shartligi belgilab qo'yilgan.

5-11-sinflar o'quvchilari esa, davlat va huquq asoslariga oid 18 ta turdagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shartligi mustahkamlangan. Ular huquqiy ta'lim, davlat tuzilishi, boshqaruv shakllari, boshqaruv usullari, davlat organlari, axloq va huquq, huquq me'yorlari, huquq tizimlari, uning sohalari, huquqni qo'llash, huquqni muhofaza qilish, huquqlardan foydalanish, huquqiy davlat, uni shakllantirish yo'llari va muammolari, insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish asoslari, Prezident asarlari, o'zbek milliy davlatchiligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari tizimlari va ulardan foydalanish kafolatlari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, ularni hurmat qilish, milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyat tizimi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshlig'i sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishiga kafil bo'lishi, Respublika suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy sohalarga oid qonunlar, ta'lim sohasi va yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari, yoshlarning ma'naviy, ma'rifiy, jismoniy kamolotining huquqiy asoslari bilan bog'liq.

SHu bilan bir qatorda davlat va huquq asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalar yuzasidan quyidagi fikrlarni bildirib o'tish lozim, ya'ni unda huquqbuzarlik va uning oqibatlari hamda o'zining yoshi doirasida u yoki uning vasiy hamda xomiysi javobgar bo'lishi macalalarini alohida belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'lib, bu yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, ularni qonunga itoatkor etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

SHuningdek, umumta'lim maktablarining 2-8-sinf o'quvchilari uchun o'tiladigan tarbiyaviy soatlar mavzularini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda asosiy e'tibor yo'l harakati qoidalariga qaratilgan. Garchand, tarbiyaviy soatlardan ko'zlangan maqsadlardan biri bu o'quvchiyoshlar o'rtasida tartib-buzarlik, tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, giyohvand moddalar qabul qilish holatlarining zarari haqida ogohlantirish bo'lsada, o'tiladigan mavzular doirasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yetarli darajada qamrab olinmagan.

YUqorida berilayotgan tavsiyalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu tavsiyalar voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish vazifasidan kelib chiqmagan. Ushbu holat yuzasidan «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bugungi kunda o'tilayotgan huquqiy dars mashg'ulotlari dasturida ko'proq qanday mavzular qamrab olinishi lozim deb hisoblaysiz?» deganda yuqorida manzillari qayd etilgan



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

respondentlarning 78%(162 tasi) «voyaga yetmaganlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari bilan bog'liq huquqiy muammolarga oid mavzular» deb javob bergan bo'lsalar, 22%(45 tasi) «huquqiy ongini oshirishga qaratilgan umumiy tushunchalar (bola huquqlari to'g'risidagi konvetsiya, majburiy mehnatga jalb qilish va x.kz) deb, javob berishgan.

Shu munosabat bilan fikrimizcha, umumta'lim maktablarida tarbiyaviy soatlar orasida aynan voyaga yetmaganlarga huquqqa, qonunga itoatkorlikning mazmun-mohiyatini, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun ahamiyatini, huquqqa bog'liq tushunchalarni, huquqiy munosabatlar tushunchasini, huquqiy munosabatlarning kelib chiqish asoslarini, huquqbuzarlik tushunchasini, turlarini, huquqiy javobgarlik kabi tushunchalarni ko'rsatib beradigan mavzularni ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. SHu o'rinda Fransuz pedagogi M.Odigier(M.Audigier) «fuqaro tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri kishilar o'rtasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni to'g'ri hal etishga o'rgatish va ular o'rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirishdir – degan fikrini eslash kifoya.

Darhaqiqat, kishilar o'rtasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni to'g'ri hal etishga o'rgatish va ular o'rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish uchun bizningcha yoshlarni ularning kundalik hayotiy ehtiyojlari bilan bog'liq huquqiy muammolar to'g'risida ko'proq xabardor etishimiz uchun profilaktika inspektorlari o'z hududidagi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikka ishlashga ko'proq e'tibor qaratishi lozim.

SHundan kelib chiqib aholining huquqiy tarbiyasi, ayniqsa yoshlarning ta'limi borasida muayyan ishlarni amalga oshirish, xususan yoshlarni huquqiy tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozim deb hisoblaymiz:

- 1) maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini samarali tashkil etish va amalga oshirish;
- 2) ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim tizimini qayta ishlab chiqish va takomillashtirish;
- 3) oliy ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan huquqiy ta'limni joriy etish;
- 4) malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi muassasalarida huquqiy ta'lim tizimini takomillashtirish;
- 5) maktabdan tashqari ta'limda huquqiy ta'lim masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

SHu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Profilaktika inspektorlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishdagi rolini oshirish va takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Muammo: Umumta'lim maktablari bilan hududiy ichki ishlar organlari o'rtasida o'quvchi yoshlarning maktabga bo'lgan, ta'lim olishga bo'lgan munosabatlarini tartibga solish borasidagi o'zaro hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayrim yoshlarning maktabning sifatli ta'limini olish o'rniga, kundalik yumushlar bilan, pul ishlashga qiziqib turli xildagi vaqtincha ishlar bilan shug'ullanishi kuzatilmoqda.

Taklif: Umumta'lim maktablarida ish faoliyatini amalga oshirayotgan inspektor psixolog bilan maktab o'qituvchilari hamda otaonalar o'rtasida aloqalarni yangi pog'onaga ko'tarish lozim. Maktabga sababsiz kelmagan o'quvchilar haqida inspektor psixologga o'z vaqtida axborot berish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Agarda maktab o'qituvchisi o'z vaqtida xabar bermagan holatlarda ushbu shaxslarga intizomiy jazo choralari ko'rish tartibini yangilash lozim.

